

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

Z..M. BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

O‘ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

Tarix ta’lim yo‘nalishi III kurs talabasi

JO`RAYEV RIVOJIDDINning

O‘zbekiston tarixi fanidan

K U R S I Sh I

**Mavzu: Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi va uning
faoloyati (1920-1924 yy)**

Ilmiy rahbar:

BOZOROV Q.

KAT. O`QIT.

ANDIJON – 2016

KIRISH

1-BOB. Xiva xonligi Sovetlar bosqini arafasida, jadidchilik harakati. Yosh Xivaliklar faoliyati.

2-BOB. Xiva xonligini sovetlar tomonidan bosib olinishi. XXSRning tuzulishi.

3-BOB. Xorazm Xalq Sovet Respublikasidagi ijtimoiy-siyosiy hayot.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

KIRISH

1917 yil oktyabrida Rossiyada amalga oshirilgan harbiy to'ntarish oqibatida butun mamlakatda, shu jumladan Rossiyaning mustamlakasi bo'lgan Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy voqealar, ayniqsa o'lka xalqlarining istiqloq uchun muqaddas kurashga o'tlanishlari Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududidagi xalqlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, albatta. 1868 yilda Rossiya bilan Buxoro amirligi va 1873 yilda Rossiya bilan Xiva xonligi o'rtasida imzolangan bitimlarga asosan har ikkala mustaqil davlat Rossiyaning yarim mustamlakasi hisoblanardi, bu davlatlar chet el davlatlari bilan mustaqil suratda biror bir sohada mustaqil aloqa qila olmas edilar.

Buxoro amirligi va Xiva xonligida monarxistik tuzum hukmron edi. Ya'ni amir va xon bu erda cheklanmagan hukmronlik mavqeiga ega edi. Buxorog amiri Abdullahad (1885-1910) dan so'ng taxtga o'tirgan uning o'g'li Amir Olimxon davri (1911-1920)da amirlikning ijtimoiy-siyosiy tuzumida ibrat olarlik darajada biror bir yangilik amalga oshirilmadi. Amirlik poytaxti Buxoro-tipik o'rta asr shahri edi. Amirdan keyingi shaxs qushbegi bamisoli bosh vazir hisoblangan. Undan keyingi mansabdor shaxs devonbegi bo'lgan. Ahloqiy ierarxiyani qozikalon boshqargan. Qo'shinga lashkarboshi bosh bo'lgan. Amirlik 25 beklikka bo'lingan. Beklar amir tomonidan tayinlangan va vazifasidan ozod qilingan. Buxoro amirligida Qarshi, Chorjo'y, Karki, Hisor, Ko'lob va boshqalar yirik bekliklar sanalgan.

Amirlikda aholi ro'yhati o'tkazilmagan. Sovetlar bosqiniga qadar bu erda taxminan 3 millionga yaqin aholi yashagan. Aholi tarkibiga ko'ra bu erda o'zbek (50,7 foiz), tojiklar (31,1 foiz), turkmanlar (10,3 foiz), qozoqlar, qoraqalpoqlar, buxoro yahudiylari, arablar, eroniylar va boshqalar yashaganlar. Aholining asosiy qismi daryolar vohalarida istiqomat qilganlar. Amirlik hududidan temir yo'l tizmalari o'tkazilgan. Bu yo'l yoqalarida yangi shaharlar paydo bo'la bordi. Yangi Buxoro (Kogon stantsiyasi), Chorjo'y, Termiz shular jumlasidandir. Bu shaharlarda ko'proq rus millatiga mansub xalqlar joylashgan.

Xiva xonligida ham Buxoro amirligidagi tartib-qoidalar amal qilgan. 1910 yilda Muhammad Rahimxon II (Feruz) vafotidan so'ng taxtga Asfandiyorxon (1910-1918) o'tiradi. Xiva xoni ham Buxoro amiri singari har qanday huquqlardan mahrum bo'lib Rossiya vassalligi ostida edi. Xondan keyingi mansablar mextar, devonbegi va boshqalar qo'lida bo'lgan. Xiva xonligi Turkiston general gubernatorligi nazorati ostida faoliyat ko'rsatgan.

Xonlikning asosiy shaharlari Xiva, Toshhovuz, Pitnak, Kuna-Urganch, Hazorasp va boshqalar edi.

20 beklik va 2 noiblikdan iborat bo'lgan Xiva xonligida 600-900 ming aholi yashagan. Milliy tarkibiga ko'ra ularning 60 foizini o'zbek, 28 foizini turkmanlar, qolganlarini qozoqlar, qoraqalpoqlar, eroniylar va boshqalar tashkil etgan.

1-BOB. Xiva xonligi Sovetlar bosqini arafasida, jadidchilik harakati. Yosh Xivaliklar faoliyati.

Buxoro va Xiva hududlari sotsial-ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotdan juda orqada edi. Bu erda kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari to'g'risida so'z ham bo'lishi mumkin emas edi. Buxoroning ruslar yashagan «Yangi Buxoro» (Kogon) qismida bir yarim mayda sanoat korxonalari qurilgan bo'lsa-da, bu Buxoro hududida kapitalistik munosabatlar to'g'risida so'z yuritishga asos bo'laolmas edi. Har ikkala davlat hududida boylar ham, kabag'allar ham bor edi. Ammo bu erda burjua va yo'qsillar sinf sifatida yo'q edi. Sovetlar davrida chop etilgan «O'rta Osiyo Kommunistik tashkilotlarining tarixi»da Xiva hududida «atigi bir necha yuz ishchi bor edi»¹, deb qayd etilishi bu fikrni batamom isbotlaydi.

Buxoro va Xiva aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, kosibchilik va boshqa ishlar bilan shug'ullangan. Bu davlatlarda xalq ommasining iqtisodiy turmush sharoiti haddan tashqari og'ir bo'lgan. Eng yaxshi erlar, katta-katta podalar, sug'orish manbalari bo'lgan ariqlar va quduqlar boylar va ruhoniylar qo'lida edi. Mehnatkash xalq ularga behisob va haddan tashqari har xil og'ir soliqlar to'lagan. Shu boisdan aholining kichik bir guruhi to'q va farovon hayot kechirib zeb-ziynatda yashagan bo'lsa, asosiy ko'pchilik qismi qashshoqlik va faqirlikda umr kechirgan. Shaharlardagi kosib va hunarmandlarning ahvollari ham nihoyatda nochor edi.

Mehnatkash omma, amir, xon va boylar zulmi siyosatiga qarshi bir necha bor bosh ko'tardi. Ammo bu harakatlar har doim shafqatsizlarcha bostirildi. Jumladan, 1912-1913 yillarda Xiva xonligidagi turkmanlarning chiqishlari, 1916 yilgi Jizzax qo'zg'oloni ta'sirida Buxoro amirligining Murg'ob, Vobkent, Yakkatut, G'ijduvon, Bahovuddin, Ziyovuddin, Xatirchi va boshqa muzofotlarida yuz bergan qo'zg'olonlar bunga yorqin misol bo'laoladi.

¹ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (XVI – XX asr boshlari); K.3 / Mas'ul muharrirlar: O'. Mavlonov, Q. Usmonov. – T.: Sharq, 2010. – B. 142.

Ayniqsa Xiva xoni Asfandiyorxonning jabr-zulmidan xalq qattiq azob va musibat chekdi, ochlik va qashshoqlik misli ko'rilmagan darajada kuchaydi. Shu bois bo'lsa kerak xalq o'rtasida:

«Asfandiyor xon bo'ldi, bag'rimiz qora qon bo'ldi,

eganimiz chigit non bo'ldi, O'lar bo'ldik bu xonlarning dastidan»

deb zaharxandalik bilan aytiluvchi qo'shiqlar keng tarqaladi. 1916 yilda Xo'jayli xalqi Xiva xoniga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Bu qo'zg'olonning bosh sababi Asfandiyorning ahloqiy buzuvchiligi va oddiy mehnatkash xalqlarning juvonlari va qizlariga nisbatan yuz tuban munosabati edi. Xon Xo'jaylilik qassob Do'stiniyoz Yusupov 15 yoshlik Enajon ismli qizini va Jabbor temirchi Polvonning 14 yoshlik qizini zo'rlab o'z saroyiga olib keltiradi. 14 yanvarda bu bedodlikdan g'azabga to'lgan Xo'jaylining 500-600lar chamasi aholisi shahar begi Avaz xo'ja rahbarligida xonga qarshi bosh ko'taradi va Xiva sari yurish qiladi. Olomonga Mang'it Bekligi qipchoqlari ham qo'shildilar. Xonga qarshi ko'tarilgan harakatni Gurlan, Shovot, Qipchoq, Toshhovuz, Qo'ng'iro't tumanlari aholisi ham qo'llab-quvvatladilar. Qo'zg'olonchilarning umumiy soni 3000 kishiga etdi. Ular 18 aprelda Xivaga yaqinlashib xonlikni tahlika ostiga solib qo'yidilar¹. Sarosimaga tushgan xon qo'zg'olonchilar huzuriga rus armiyasi garnizoni boshlig'i polkovnik Kolosovskiyni yuboradi va qo'zg'olonchilarni tinch muzokara boshlashga da'vat etadi. Asfandiyor huzurida bo'lgan muzokara chog'ida xalq vakillari xonni taxtdan voz kechishga chaqiradilar. Gurlan qo'zg'olonchilar sardori Husaynbek Matmurodov qozikalon Boboovxonga shunday savol bilan murojaat qiladi: «Aytingchi, Boboovxon eshon, xon hazratlarining har bir qishloq va ovulga kuyov bo'lishi kerakligini qaysi kitobdan topib bera olasiz? Shunda din homiysi: «Muqaddas kitobimizda bunday gap yo'q, deb dadil javob bergan va xondan o'z xatosiga iqror bo'lishini so'ragan»².

¹ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (XVI – XX asr boshlari); K.3 / Mas'ul muharrirlar: O'. Mavlonov, Q. Usmonov. – T.: Sharq, 2010. – B. 143.

² Ўша асар, – B. 144.

Shunda xon qo'zg'olonchilarni hibsga olishga buyruq berdi. Qozikalon Boboovun bu haqsizlikka norozilik bildirdi. Ammo xon uni inobatga olmadi. Qo'zg'olon battar avjiga chiqadi. Asfandiyor Rossiya hukumatiga murojaat qiladi. Rus qo'shinlari general-leytenant S.A.Galkin qo'mondonligidagi jazo otryadi askarlari etib kelgach qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostiriladi. Qo'zg'olon qatnashchilariga 4 million 554 ming so'm miqdorida jarima solindi¹.

1914-1918 yillarda yuz bergan jahon urushi, 1917 yilda Rossiyada amalga oshirilgan fevral fevral inqilobi, undan keyingi Oktyabr harbiy to'ntarishi va nihoyat 1918-1934 yillarda Turkiston o'lkasidagi milliy-ozodlik va istiqloqlilik harakatlarining oqibatlari natijasi o'laroq Buxoro amirligi va Xiva xonligida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot keskin tus oldi. Har ikkala davlat hududida iqtisodiy tanglik kuchaydi, narx-navo mislsiz darajada ko'tarildi, qashshoqlik, ochlik avj oldi, paxta ekin maydonlari keskin qisqarib ketdi. Masalan, Buxoro amirligida paxta ekilgan maydonlari 1918 yilda 1913 yildagiga nisbatan 50 foizga, 1919 yilda esa 20 foizga tushib qoldi. Rossiyaga olib borib sotiladigan paxtaning miqdori 1917 yildan 1919 yilgacha bo'lgan davr mobaynida 20 baravar, Qorako'lning miqdori qariyb 10 baravar va junning miqdori 6 baravar kamaydi. Bir pud paxtaning narxi 1917-1919 yillar oralig'ida 11 so'mdan 1 so'm 80 tiyinga, bir pud junning narxi 6 so'mdan 2 so'mga, bir dona qorako'lning narxi 7 so'mdan 1 so'm 20 tiyinga tushib qoldi. Ayni paytda oziq-ovqat mahsulotlari narxi haddan ziyoda oshib ketdi. Jumladan, ilgari bir mani (bir mani-besh pud) gurunch 7 so'm 50 tiyin turgan bo'lsa, 1920 yilda 400 ming so'mga, bir choragi (2 kilogramm) 15 tiyin turgan go'shtning narxi 80 ming so'mga, bir man bug'doyning narxi 3 so'mdan 90 ming so'mga ko'tarilib ketdi. Bu ham etmagandek, mehnatkash ommadan olinadigan soliqlar miqdori yanada oshirildi, uning qo'lidagi g'allalar zo'rlik bilan tortib olindi. Bu tadbirlarning hammasi Sovetlarning amirlikka qarshi urush e'lon qilishi xavfi tufayli amalga oshirildi. Yana buning ustiga amir

¹ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (XVI – XX asr boshlari); K.3 / Mas'ul muharrirlar: O'. Mavlonov, Q. Usmonov. – T.: Sharq, 2010. – B. 145.

qo'shinlariga mehnatkashlardan ommaviy safarbarlik e'lon qilinishi dard ustiga chipqon bo'ldi. Natijada sabr-kosasi to'lib-toshgan xalq o'z-o'zidan ixtiyorsiz ko'cha jangiga otilib keta boshladi. Chunonchi 1919 yil fevral oyida Shahrisabzda kutilmaganda o'z-o'zidan qo'zg'olon boshlanib ketdi. 2 minglar chamasi dehqonlar Bekning uyiga hujum uyushtirdilar. 15 kun davomida uning navkarlariga qarshi haqiqiy jang bo'ldi. Bunday g'alayonlar amirlikning Vobkent, G'ijduvon, Qorako'l va boshqa muzofotlarida ham bo'lib o'tdi. Xalq ommasi mahalliy ma'murlarga bo'ysunmay qo'ydi, soliqlarni to'lashdan, farzandlarini askarlikka berishdan ochiqdan-ochiq bosh tortdi. Bu qo'zg'olonlarni bostirish uchun amir Nizomiddinhoji qushbegi boshchiligida jazo otryadi yubordi. Qo'zg'olonchilarga nisbatan shafqatsiz choralar ko'rildi. Amml halq harakati borgan sayin kuchaygandan kuchaydi. Viloyatlardagi xalq qo'zg'olonlarini bostirishga ulgurmasdan, 1919 yil 2 mayda Eski Buxoro kosiblari oyoqqa turdilar. Qo'zg'olonchilardan shafqatsiz va qattiq o'ch olindi. Faqat eski Buxoroning o'zidagi 1919 yil 2 iyundan 13 iyunga qadar 5 ming kishi zindonga tashlandi. Qo'zg'olonning eng faol tashkilotchilaridan 63 kishi Registon maydonida qatl etildi. Albatta bu tadbirlar xalq ommasining amir va xon zulmi siyosatidan norozilik harakatining yanada kuchayishiga sabab bo'ldi. Uning alamli natijasi hasratini faqat Buxoro amirigina emas, balki shu paytga qadar yarim mustamlaka holatida bo'lsada o'z mustaqilligini saqlab kelgan butun Buxoro va Xiva xalqlari tortdilar.

Buxoro amirligi va Xiva xonligida sodir bo'layotgan xalq kurashining mafkuraviy asosini jadidchilik harakati tashkil etar edi. Buxoro va Xivada vujudga kelgan jadidchilik harakatida 1905-1907 yillarda Rossiyada yuz bergan inqilobning va yosh turklarning 1908 yilda o'z monarxlariga qarshi bosh ko'tarishlari katta ta'sir kuchiga ega bo'ldi. Shu boisdan Buxoro va Xiva jadidlari «unchalik keskin bo'lmasa-da, jamiyatni isloh qilish tarafdorlari»¹ bo'lib maydonga chiqdilar.

¹ Ражабова Р.Е. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи (1917-1993 йиллар), 73-бет.

Hududiy jihatdan yagona bo'lgan O'rta Osiyoda jadidchilik harakati bir vaqtda paydo bo'lgan bo'lsada, o'z oldiga qo'ygan kurash maqsadlari jihatidan ikki xil yo'nalish kasb etgan. Jumladan, Turkistonlik jadidchilar o'z oldilariga boshq maqsad qilib Turkiston o'lkasini Rossiya mustamlakachilaridan ozod qilish va milliy mustaqil davlat tuzishni qo'ygan bo'lsalar, buxoro va xivalik jadidlar hokimi mutlaq-o'z monarxlari bo'lgan amir va xon zulmiga qarshi kurashni bosh maqsad deb bildilar. Bu o'rinda xalqimiz o'rtasida keng tarqalgan «tabib-tabib, boshidan o'tgan tabib» naqlini ishlatish o'rinlidir. Yoki shoirning «Dardini tortgan tabib andin davosini so'rang», degan so'zlari hayotiy isbotini topgandek ko'rinadi. Chunki «har kim o'z dardini aytib yig'layodida». Rossiya mustamlakachiligi zulmini, uning barcha yaramas va og'ir illatlarini, noinsoniy ko'rinishlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan, uning barcha azoblari yukini elkasida ko'tarib undan nafratlangan Turkiston o'lkasi xalqlari bosh maqsad qilib ana shu shovinistik mustamlakachilik zulmidan ozod bo'lishni, milliy mustaqil davlat tuzishni bosh maqsad deb bildilar. Bu bosh maqsadning ilhomchilari turkistonlik jadidlar edilar.

Buxoro va Xiva xalqlari uchun mustamlakachilik zulmi yo'q edi. Chunki Rossiyaga yarim mustamlaka, qaram bo'lsada, Buxoro bilan Xiva o'z mustaqilligini saqlab qolgan edida. Bu erda mahalliy boylar va mushtumzo'rlar zulmi kuchli edi. Boylar va amaldorlar amir va xon himoyasida edi. Bugina emas ko'p hollarda amir va xon zulmi hammasidan ham oshib tushar edi. Mehnatkash xalqning arzi-dodini eshitadigan bir kimsa yo'q edi. E'lon qilingan farmonlar ishlamas va bajarilmas edi. Xalq ommasi hokimi mutlaq-monarx amir va xon o'rniga insofliroq va adolatliroq hukmdorga ega bo'lishni xohlar edi. Xalqning bu intilishi va qiziqishini Buxoro va Xiva jadidlari idrok etdilar va ko'tarib chiqdilar. Ular shu boisdan ham amir va xonga qarshi kurashni bosh maqsad deb bildilar. Yosh turklar faoliyati Buxoro va Xiva jadidlari faoliyati uchun namuna va o'lchov mezoni bo'ldi. Shuning uchun ular o'zlarini yosh turklarga nisbat berib «yosh buxoroliklar», va «yosh xivaliklar» deb atay boshladilar. Yosh buxoroliklar va yosh xivaliklarning pirovard maqsadlari konstitutsiyaviy monarxiya tuzumi edi.

Ular ana shu konstitutsiyaviy monarxiya tuzumi doirasida islohotlar o'tkazish yo'li bilan adolatli va insonparvar jamiyat qurish mumkin, deb ishonardilar. Lekin ana shu o'rtacha mo'tadil talablar ham amir va xon tomonidan e'tiborga olinmas edi. Bu talablarni ilgari surganlar hukmron tabaqa kuchlarning juda keskin qarshiligiga duch kelar va shafqatsizlarcha bostirilar edi. Shu boisdan yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar o'ta yashirin holatda ishlashga majbur bo'lganlar.

Hokimi mutlaq bo'lgan amir va xon hokimiyati garchi podsho Rossiyasi nazoratida bo'lsa-da, hali ancha mustahkam edi. U ancha qudratli konservativ va yangilikni yoqtirmaydigan kuchlar: Beklik hokimlari, boshqaruv va idora amaldorlariga tayanar edi. Bunday monarxistik idora tartib usuli islom dini g'oyaviy-mafkuraviy asosiga qurilgan edi. Bu mafkuraga asosan davlat hukmdori «xudoning erdagi soyasi», uni «xudo ato etgan» va muqaddas hisoblanar edi.

Yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot qonuniyatlari taqozosiga ko'ra xalq ommasi o'rtasida tayanch bazaga ega emas edilar, ular o'zlariga ittifoqchilarni chetdan izlanadilar va Rossiya timsolida amir va xon zulmidan ozod bo'lish mumkin, degan tariqda ham turmaydigan va kechirib bo'lmaydigan siyosiy xatoga yo'l qo'yidilar.

Albatta yosh buxoroliklar va yosh xivaliklarning bu yo'l qo'ygan xatoliklarida ayyor va pixini yorgan shum bolshevoylarning uzoq maqsadni ko'zlab zimdan olib borgan tashviqot va targ'ibot ishlari ham katta o'rin tutdi.

«Yosh xivaliklar» tashkiloti 1917 yilda Xiva jadidlarining so'l qanotidan ajralib chiqdi. Uning tashkilotchi va asoschilari HusaynBek Matmurodov, Bobooxun Salimov, Poliyoz Hoji Yusupov, Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov va boshqalar edilar.

Ular rus podshosi istibdodi bilan uyg'unlashgan mustabid xon zulmi, mutaassiblik, hurofot, xilma xil soliqlarning ko'pligidan azoblanayotgan xalqni erkin va farovon turmushga olib chiqish, Vatanni iqtisodiy va madaniy taraqqiy ettirish yo'lida bosh qotirdilar va demokratik islohotlar o'tkazish, mamlakatda

hayotni yo'lga qo'yishda xon hokimiyatiga muholifatda bo'ldilar. Bu muholifat taraqqiyparvarlar orasida xonlikdagi yirik ulamo va amaldorlar vakillari ham bor edi. Jumladan, Boboxxun Salim islom homiysi Shayxul islom ya'ni qozikalon mansabida edi. U o'z lavozimidan foydalanib Xiva xoni Asfandiyorxonni adolatparvar, xalqqa mehr-shafqatli bo'lishga chaqirdi.

«Turon» gazetasining yozishicha 1917 yilning 4 aprelida Xiva shahridagi rus askarlari, deputatlari soveti va Boboxxun Salimov rahbarligidagi «Yosh xivaliklar» namoyish o'tkazdilar.

Bundan cho'chigan Asfandiyorxon 5 aprelda «Yosh xivaliklar» qo'mitasi tomonidan yozilib unga taqdim etilgan manifestga imzo chekishga majbur bo'ldi. Bu hujjat asosida Xiva xoni boshchiligida konstitutsiyaviy monarxiya tuzumi qaror topadi, deb e'lon qilinadi. Saylov yo'li bilan deputatlar majlisi va Nozirlar kengashi tashkil topdi.

8 aprelda bo'lgan Majlisning birinchi yig'ilishida deputatlar-majlisning raisligiga Boboxxun Salimov, Nozirlar (vazirlar) kengashining raisligiga esa Husaynbek Matmurodov saylandi. Ana shundan so'ng majlis va hukumat butunlay «Yosh xivaliklar» qo'liga o'tadi.

Majlis nomidan e'lon qilingan Manifestga ko'ra xonlikda vaqf, mulk (xususiy) va podsholik erlari dahksizligicha saqlanib qoldi, xazinaning kirim va chiqimlari ustidan nazorat o'rnatildi, shariat sudlari davlat ta'minotiga o'tkazildi, yangi usuldagi jadid maktablari ochilishi belgilandi.

Majlis deputatlari orasida dastlab turkman millatining vakillari yo'q edi. Keyinroq ularning talablari ham qondirildi, turkman millat vakillaridan 7 kishi majlis deputatlari tarkibiga kiritildi. Qoraqalpoqlarning vakillari ham Majlisda o'z o'rniga ega bo'ldi. Bular albatta jadidlar rahbarligida boshlangan ozodlik va erk uchun kurashning dastlabki yutuqlari edi.

Ammo bu g'alaba uzoqqa bormadi. U bor yo'g'i 7 oy umr ko'rdi, xolos. Asfandiyorxon Rossiya muvaqqat hukumatining Xivadagi vakili general Mir Badalovga suyangon holda 1917 yil iyun oyining boshlarida jadidlar boshliq Majlisga qarshi fitna uyushtirdi. Bu paytda Boboovun Salimov va «Yosh xivaliklar»ning boshqa yirik namoyondalari Toshkentga Sovet hukumatidan yordam so'rash uchun kelgan edilar. Xon nozirlar kengashining raisi H.Matmurodov boshliq jadidlarning 17 vakilini qamoqqa oladi. Keyinchalik ularning juda oz qismi qamoqxonadan qochishga muvaffaq bo'ldi. Qolganlari esa otib tashlandi. Jadidlar «Shariatga xiyonat qilganlikda» ayblanib ta'qib ostiga olindilar va quvg'in qilindilar.

Xiva xoni majlisga yangidan «saylov» o'tkazdi. Uning raisi qilib Ortiq Oxun saylandi. Nozirlar kengashining raisi lavozimi esa Bosh vazir deb qayta nomlandi va unga Isoqxo'ja tayinlandi.

Bu amalda o'ziga xos davlat to'ntarishi edi. Bu ishni amalga oshirishdagi xizmatlari uchun xon Mir Dalalovga 40 000 so'm pora berdi¹.

B.Salimovning boshi uchun katta miqdorda pul va'da qilindi. Uning singlisi Ullijonbiy tutib olinib, qiynab o'ldirildi. Shundan so'ng B.Salimov va boshqa jadidlar yashirin faoliyat yuritishga majbur bo'ldilar. Ularning ko'pchiligi Amudaryoning narigi tomonidan Petro Aleksandrovskdan sovet hokimiyati o'rnatilgan o'ng sohilidan boshpana topdilar.

Asfandiyorxon mamlakatda xalq noroziliklarini bostirish va jadidlarni «tartib»ga chaqirishda rus askarlaridan foydalandi. 1917 yil iyulda Rossiya muvaqqat hukumati Xiva xonligida maxsus harbiy ma'muriyat tashkil etdi. Harbiy komissar Zaytsev xonga yordam uchun jazo otryadlarini tashkil etib, shahar va tumanliklarga taqsimladi. Xalq ommasining haq-huquqlari rus askarlari tomonidan toptaldi va oyoq osti qilindi. Bu ham etmagandek 1917 yilda xonlik hududida ocharchilik avj oldi. May oyida Xiva shahrida «ochlik isyoni» ko'tarildi. Bu

¹ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (XVI – XX asr boshlari); K.3 / Mas'ul muharrirlar: O'. Mavlonov, Q. Usmonov. – T.: Sharq, 2010. – B. 148.

to'g'rida 1917 yil 27 avgustda Toshkentda chop etiladigan «Ulug' Turkiston» gazetasi quyidagilarni yozgan edi: «Hozirgi paytda Xivada dahshatli ochlik kuchaydi, mamlakat shaharlarida och qolganlarning qo'rqinchli isyoni avj oldi»²

Ana shunday og'ir bir sharoitda 1917 sentyabrida Junaidxon o'z qurolli to'dalari bilan Xivaga qaytib keladi. U 1916 yildagi qo'zg'olon davrida Afg'onistonga o'tib ketgan edi. Junaidxon xonlikda juda katta o'zgarishlar yasashga muvaffaq bo'ldi.

Junaidxon murakkab shaxs. Uning tarixda tutgan o'rnini haqida turli manbalarda turlicha fikrlar mavjud. Sovetlar tarixida u «o'g'ri», «qaroqchi», va «siyosiy tovlamachi», aksilsovetviy adabiyotda esa «Turkmanlarning qahramoni» deb ko'rsatilgan.

Sovet tarixchilari voqea va hodisalarni soxtalashtirishda ustasi farang bo'lsalar, albatta aksilsovetviy muholiflar ham ulardan qolishmaydilar. Ammo nima bo'lganda ham Junaidxon va shu kabi boshqa yirik tarixiy shaxslar, ularning faoliyati haqida tarixiy haqiqat mezoni asosida to'g'ri yoritish uchun mustaqillik imkoniyat yaratdi.

Junaidxon turkmanlarning yovmid urug'idan, junaid naslidan chiqqan. Uning asl nomi G'urban Mamed (ya'ni Qurbonmamad) bo'lgan. U dastlab o'z ovulida qozi bo'lgan, miroblik qilgan. Qoraqum sahrosida u o'z yigitlari bilan bir necha savdo karvonlarini talab, «sardor» nomini ham olgan, bir necha kichik «sardor»larni o'ziga tobe qilgan va shu tariqa nom chiqargan. So'ng u o'zini Xiva taxtiga da'vogar deb e'lon qiladi. Shu bois uni yovmidlarning junaid nasli xoni- «Junaidxon» deb ataganlar. Junaidxon o'z yigitlari bilan to'g'ridan-to'g'ri Xiva xonligiga xavf solib turgan kommunistik bosqinga, ya'ni sovet hokimiyatiga qarshi bosh ko'tardi. Uning bu maqsadi na faqat Asfandiyorxonga, balki chor Rossiyasining Xivadagi barcha aksilsovetviy harbiylariga va umuman milliy mustaqillik uchun kurashayotgan kuchlarga ayni muddao edi.

² Ўша асар, ўша жойда

Asfandiyorxon 1918 yil yanvarida Junaidxon bilan aloqa o'rnatdi va xonlikni birgalikda idora qilish hamda bolsheviklarga qarshi kurashish maqsadida Xivaga taklif qildi.

Junaidxon va uning tarafdorlari xonning oliy amaldorlari oldida eski qabila va urug'chilik asoslaridagi adovatlarini unutib, sidqidildan xizmat qilishga qasam ichdilar. Shundan so'ng Asfandiyorxon Junaidxonni «sardori karim» (qo'shinlar qo'mondoni) qilib tayinladi. Junaidxon bu bilan cheklanmay oradan sal vaqt o'tgach, 1918 yil 30 sentyabrda xon saroyiga katta o'g'li Eshixon rahbarligida harbiy qo'shinni yuboradi. Qabul marosimi vaqtida Asfandiyorxon o'ldiriladi, uning o'rniga xonning tog'asi, irodasiz Cayid Abdulla To'raxon xon deb e'lon qilinadi.

Abdullaxon nomigagina xon edi, butun hokimiyat to'laligicha Junaidxon qo'liga o'tdi.

Bu paytda Turkistonda sovet hukumati inqilob bayrog'i ostida Moskvaning to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmasi bilan Xivaga qarshi «harbiy inqilobiy» tajovuzkorlikni kuchaytirib yuborgan edi. Sovet tarixida bu «Inqilobiy tayyorgarlik» deb nomlandi. Aslida esa bu tayyorgarlik Xiva xonligini batamom bosib olish va Sovetlar mustamlakasiga aylantirishni bosh strategiyaviy maqsad qilib qo'ygan edi.

Sovetlarning Xiva xonligi mustaqilligiga xavfi kuchayadi. Shu bois Junaidxon va Qo'g'irchoq Sayid Abdullaxonning Sovet bosqiniga qarshi harbiy tayyorgarlikni kuchaytirishni tarixiy ob'ektiv zaruriyat deb qaramoq kerak. Ammo urushga tayyorgarlikning hamma og'irligi zahmatkash xalq elkasiga tushdi. Quroli yoki oti bo'lgan har bir kishi navkarlikka (askarlikka) chaqirildi, oti yoki quroli bo'lmagan har uch xonadon esa bitta otliq navkarni qurollantirib, uning barcha harajatlarini berib turishga majbur qilindi. Uch yoki undan ko'p navkar bergan xonadonlarning erlarini batraklar tekinga ishlab berishi joriy etildi. Oldingi soliqlar

saqlanib qolingani holda dehqonlar qo'shimcha 1-2 tillo pul va 10-12 pud don solig'i to'lashi shart qilib qo'yildi.

Junaidxon vaqtdan foydalanish uchun 1919 yilning aprelida sovet hukumatiga sulh tuzish to'g'risida taklif kiritdi. 9 aprelda Taxtaqal'ada RSFSR bilan Xiva xonligi o'rtasida sulh shartnomasi imzolandi. Unda har ikkala tomon ham har qanday harbiy harakatni to'xtatishi, Rossiya Sovet hukumati Xiva xalqining o'z taqdirini o'zi belgilashini tan olishi; har ikki tomon bir-biriga erkin va xavfsiz suv va quruqlik orqali bordi keldi, savdo va iqtisodiy aloqalarni yaxshilashga harakat qilishi qayd etildi. Bolsheviklarning eng jozibador «millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash to'g'risida»gi shiori tashviqot-targ'ibotchilik maqsadini ko'zlar edi. Shartnomaga asosan Rossiya ana shu shior asosida Xiva xonligi xalqlarining o'z taqdirini o'zi belgilashini rasman tan oldi. Xiva xonligi Rossiya vassalligidan chiqdi. 1873 yilgi Gandimiyon shartnomasi o'z kuchini yo'qotdi. Lekin sovet hukumati va faqat Xiva xalqiga, balki umuman Rossiyaga tobe bo'lgan barcha mamlakatlar xalqlariga ham o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalda bermadi. Aksincha bu xalqlar o'z taqdirini o'zlarini «inqilobiy yo'l» bilan hal qilsin, degan vaj-karson bahonada bu davlatlarning ichki ishlariga aralashdi, qurolli harbiy yurishlar qildi va ularni bosib oldi. Xuddi ana shu yo'l Xiva xonligida ham qo'llanildi:

Birinchidan, bosqinchilik va mustamlakachilikdan iborat bosh maqsad «inqilob» pardasi bilan niqoblendi, targ'ibot va tashviqot ishlari kuchaytirildi. Bolshevoylar o'zlarining asl maqsadlari Xivada davlat to'ntarishi yasashdan iborat bo'lsa-da, uni «xalq inqilobi» nomi bilan niqoblادilar.

Ikkinchidan, bolsheviklar millatlar, urug'lar va tabaqalararo kelishmovchilik va nizolardan ustalik bilan foydalandilar. Ular o'rtasida qurolli to'qnashuvlarni keltirib chiqardilar, bunday to'qnashuv va qarama qarshiliklarga sinfiy kurash va inqilobiy harakat tusini berdilar. Aslida esa, butun Turkistonda bo'lganidek, xususan Xiva xonligida sinflar ham, sinfiy kurash ham bo'lmagan Xiva xonligi tipik agrar mamlakat edi. U tashqariga (asosan Rossiyaga) paxta chiqarar edi,

xolos. Ana shu ob'ektiv ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va siyosiy tarixiy borliqqa qarama-qarshi o'laroq rus bolsheviklari Xiva xonligida «qo'lbola proletar inqilob»ni tayyorlash uchun barcha jirkanch, noqonuniy, nodemokratik va nohalqchil hatti-harakatlarni ishga soldilar. Ular turli nayranglar bilan taraqqiyparvar jadidlar va oddiy mehnatkash xalqdan «inqilobchilar» yasadilar.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda «Taxtaqal'a sulhi» Xiva xonligi uchun o'ziga xos tuzoq rolini o'ynadi. Chunki bu sulh Xiva xalqiga o'z taqdirini o'zi belgilashini rasman e'lon qilishi bilan uni chalg'itdi va Sovet hukumatining go'yo tinchliksevar bo'lganligini soxtakorlik bilan ko'rsatib xalq ongini zaharladi. Bu sulh uchun to'plab olish va nafasni rostlash uchun Sovet niqobidagi bosqinchilarga juda zarur edi. 1917 yil dekabr va 1918 yil yanvarida Sovetlar Amudaryoning quyi oqimi va o'ng qirg'og'idagi To'rtko'l (Pet Aleksandrovsk), Nukus, Chimboy, Qizil Arvot, Bayram Ali, Tejen, Krasnovodsk, Kazanjikda o'z hokimiyatlarini o'rnatdilar. 3 dekabrda Ashxobodda Kaspiyorti viloyati xalq komissarlari kengashi tashkil topdi. Chunki, bu hududlarda ruslar boshqa joylardagiga nisbatan ko'pchilikni tashkil etar edi. Kommunistlar o'zlarining razil maqsadlarini amalga oshirishi uchun To'rtko'l shahrini «Inqilob markazi»ga aylantirdilar. To'rtko'l siyosiy va strategik jihatdan juda qulay molik ahamiyatga ega joy edi. Shu boisdan ham RSFSR va uning O'rta osiyodagi asosiy tayanchi-Turkiston Xalq komissarlari Kengashi bu shaharga katta e'tibor berdilar. Bu erga zudlik bilan Kaspiy orti frontidan bir necha harbiy bo'limlar tashlandi. Ular mahfiy ravishda xonlikning ichkarisi-Xiva va boshqa shahar va tumanlarga doimiy ravishda o'z «inqilobchi»larini-josuslarini yuborar edilar. Kommunistik ig'vo tashviqotga aldanib Qalandar Odinaev, Bozorboy Suyarqulov, Shallazatdin Faxretdinov va boshqalar bolshevoylar firqasi safiga kirdilar va targ'ibot-tashviqot ishlarini olib bordilar.

Sovet hukumati va kompartiyaning Turkistonda cheklanmagan ma'muriy va firqaviy vakolatga ega bo'lgan «Turkkomissiya», «Turkbyuro» kabi tashkilotlari xonga qarshi undan jabrlangan alamzadalardan firqa tashkil etish, turli xil

guruhdagi qo'porouvchilarni tayyorlash, zamonaviy harbiy texnika bilan qurollangan Qizil askarlar sonini ko'paytirish uchun kuch va mablag'larni ayamadi.

Rus sotsial-demokratik firqalari, ayniqsa bolsheviklar o'zlarining asosiy diqqat-e'tiborlarini Xivaga qaratdilar. Jadidlarning yirik namoyondalaridan Jumaniyoz Sultonmurodov 10-15 kishidan iborat «Yosh xivaliklar»ning To'rtko'l qo'mitasi (komiteti)ni tashkil etdi. 1919 yilning boshida bu tashkilot (firqa) a'zolarining soni 600 ga etdi, 200 kishilik o'z harbiy qismiga ham ega bo'ldi»¹.

Asli jadidlardan bo'lgan bu «Yosh xivaliklar»ning dasturiy talablari ham 180 gradus farq bilan buyuk rus millatchiligi va mustamlakachiligi foydasiga o'zgardi. Agar ilgari ular Xivada xonning mutloq monarxiyasini konstitutsiyaviy monarxiya bilan almashtirish, Xivaning mustaqilligi va xususiy mulkchilikni saqlab qolish uchun kurashgan bo'lsalar, ularning yangi dasturida bu talablarning aksi qayd etiladi. Jumladan unda xon hokimiyatini ag'darib tashlab Xivani Rossiya Sovet federativ Respublikasiga butunlay birlashtirish g'oyasi bosh maqsad qilib qo'yildi.

Xullas, «Yosh xivaliklar»ning bolsheviklar ta'sirida inqilobiylashuv jarayoni kuchayadi. Bu ularning quyidagi amaliy dasturida o'z aksini topadi:

Mustabid xon hokimiyatini tugatish.

Xiva mulklarini (erlarini-mualliflar) Turkiston bilan birlashtirib, ularni Rossiya Sovet Respublikasi tarkibiga kiritish;

Xiva xoni shahzodalari, beklari va vazirlariga tegishli mulklar qanday bo'lishidan qat'iy nazar musodara qilinishi.

Yirik pomeshchik (dehqon)larning erlarini kambag'allarga tortib olib berish.

Vaqf mulklardan keladigan daromadlarning hammasini machitlarga sarflash;

Xivaning hamma joyida bolalarni tekin o'qitadigan maktablar ochish.

¹ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (XVI – XX asr boshlari); K.3 / Mas'ul muharrirlar: O'. Mavlonov, Q. Usmonov. – T.: Sharq, 2010. – B. 1.

Xivaning shahar va aholi yashaydigan joylarida tekin tibbiy yordam beradigan kasalxona va davolash xonalarini tashkil etish.

Xiva xoni tomonidan tortib olingan er va boyliklarni kambag'al aholiga qaytarish.

Yo'llarni yaxshilash va ko'priklar qurilishiga kirishish.

Majburiy mehnat turlarining hammasini bekor qilish.

Xon hukmronligini tugatib yuqorida ko'rsatilgan tadbirlarni hayotga tadbiq eta oladigan xalq hokimiyatini tashkil etish, sovet hokimiyatining dushmanlari bilan shafqatsiz kurash olib borish kabilar.

So'zsiz suratda «Yosh xivaliklar»ning «inqilobiy dastur»ni amalga oshirishdan Rossiya sovet hukumati va kommunistik firqa manfaatdor edi. sovetlar o'zlarining qora niyatli maqsadlarini amalga oshirishda har doim «baynalmilal burch» deb atalmish g'oya pardasiga yashirindilar. Buning uchun ular o'zlarini mahalliy xalqni xon, beklar, boy va feodallar zulmidan ozod bo'lishda «yordam» beruvchilar qilib ko'rsatib amalda «harbiy inqilobiy» harakatni kuchaytiradilar.

Bu borada ular «Yosh xivaliklar»ning islohotchi tashkilotini kompartiyaga aylantirish va mahalliy «inqilobchi»larni ko'paytirish zarur deb hisobladilar. Shuning uchun To'rtko'ldagi g'ayrimusulmon kommunistik firqa qoshida «Yosh xivaliklar bo'limi» tashkil etildi. 1919 yilning o'rtalarida bu kommunistik guruh Turkiston va Rossiya kompartiyalari Markaziy qo'mitalariga murojaat qilib, Rossiya kommunistik firqasi tarkibiga kirish uchun ruhsat so'radi. Shu yil 15 iyulda kompartiyaning To'rtko'l qo'mitasi va «Yosh xivaliklar» inqilobiy qo'mitasining birlashgan yig'ilishi bo'ldi. Unda qabul qilingan maxsus qarorda qo'mita a'zosi bo'lish uchun faqat Rossiya kompartiyasi safida bo'lish shart qilib qo'yildi. Shundan ham ma'lumki, hamma ish, ya'ni xon hokimiyatini ag'darish markaz chizgan chiziq asosida amalga oshirilishi kerak edi. Boshqa yo'ldan borish mumkin emas edi.

Sovetlar davrida yozilgan manbalarda 1919 yilning kuzi va oxirlariga kelib Xivada «inqilobiy harakat» yangi bosqichga ko'tarildi, «inqilobiy vaziyat etildi», «Xivada inqilob boshlandi», deb rus kommunistik bosqini teskari talqin qilindi. Bu sovet tarixchiligiga xos soxtakorlik edi, albatta. Xivada bundan oldin va keyin ham inqilob u yoqda tursin hatto, uning sharpasi ham bo'lgan emas. To'g'ri, bu davrda xalq ommasining xon zulmidan noroziligi kuchaygan edi, sovet hokimiyati va kompartiyaning bosqinchilik harakati hamda mustamlakachilik siyosatiga qarshi ozodlik kurashi boshlangan edi. Bu harakatlar sovet tarixchiligida «xalq inqilobi» deb ko'rsatildi. Har ikki tomon ham shu paytgacha oshkora va yashirin suratda bir biriga qarshi qurollandi, harbiy kuch to'pladi, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib bordi. Nihoyat bu harakatlar sovet hukumati bilan xonlik o'rtasida o'zaro harbiy to'qnashuv boshlanishiga olib keldi. Bu urush rus sovet hukumati tomonidan bosqinchilik urushi, Xiva hukmdori Junaidxon tomonidan esa mustaqillik uchun, istiqlol uchun urush bo'ldi

2-BOB. Xiva xonligini sovetlar tomonidan bosib olinishi. XXSRning tuzulishi.

1919 yilning oxirlariga kelib Sovetlar hukumati Xiva xonligini bosib olish bo'yicha amalga oshirgan tayyorgarlik ishlari nihoyasiga etdi. Bolshevoylar har doim bo'lganidek Xivani bosib olish jarayonida tub erli aholi o'rtasida birlik va hamjihatlikning yo'qligidan, qabila va urug'lar o'rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklardan foydalandilar. Bu o'rinda xususan Junaidxonga qarshi bo'lgan turkman urug' boshliqlari Qo'shmamedxon, G'ulomalixon va Yaxshigeldilarning aldanib 1919 yil noyabrda bolsheviklar tomoniga o'tishlari xarakterlidir. Xiva xonligi hududlarini bosib olish Moskva va Toshkentdagi Sovetlar hukumati tayyorlagan dastur asosida amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar juda ko'p. Jumladan ana shunday hujjatlardan bittasi TKP O'lka Musulmonlari Byurosi vakili Hasanovning telegrammasidir. U 4 noyabrda 4 nomga: Tashqi Ishlar Komissarligi, TKP O'lka musulmonlari Byurosi, Turkiston MIK va Turkiston Respublikasi Inqilobiy Harbiy Kengashiga Xivada «inqilob» boshlandi, deb telegramma jo'natdi. Ana shu telegrammaning mazmunidan Xivada «boshlangan inqilob»ning asl mohiyati ochiq-oydin ko'zga tashlanadi. Unda quyidagilarni o'qiymiz: «Zo'r berib olib borilgan targ'ibot-tashviqotimizdan keyin, Xiva proletariati Junaidxonga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Hamma joyda janglar bormoqda. Bizga vakil kelib, yordam so'rab turibdi. Vaziyat jiddiy. Fursatni boy bersak, yutqazib qo'yishimiz mumkin, olti oylik ishimiz barbod bo'ladi».

Bu telegrammaga javoban Turkiston Respublikasi Harbiy Inqilobiy Kengashi 1919 yil 22 dekabrda zudlik bilan qaror qabul qildi. Mazkur qarorga asosan qizil askarlardan ikkita otryad tuzilib Xiva xonligiga ikki tomondan tashlandi. Janubiy otryadga Shcherbakov, Shimoliy otryadga Shaydakov qo'mondonlik qildi. 23 dekabrda Turkiston Respublikasi Inqilobiy Harbiy Kengashi Xiva-Amudaryo bo'limi muxtor vakili G.B.Skalovning «Junaidxonning zulmidan ozod bo'lishda Xiva mehnatkashlariga yordam berish» to'g'risida buyrug'i chiqdi. Bunday yordamni amalga oshirish Shcherbakov va Shaydakovlar qo'mondonligidagi qizil

askarlar kuchlariga topshirildi. Ammo amalda Xiva xonligiga qarshi harbiy harakatlar bu buyruqdan ilgariroq 22 dekabrda boshlangan edi.

Shu kuni Qizil askarlar Amudaryo bo'limida qo'zg'olon kazak otryadlarini tor-mor keltirib Amudaryodan o'tdi va Xiva xonligi erlariga yovuzlarcha bostirib kirdi. Shimoliy otryad qo'shinlari Janub yo'nalishi bo'yicha urush harakatlarini davom ettirib xonlikning asosiy yirik markazlarini egallab bordi. 29 dekabrda Xo'jayli, 9 yanvarda Ko'hna Urganch, Omonqal'a, 14 yanvarda Porsu, 16 yanvarda Ilolli, 18 yanvarda Toshhovuz bosib olindi. 20 yanvarga kelib G'oziobod va Badirkent egallandi. Janubiy otryad esa 24 dekabrda Amudaryoni kechib o'tdi va u ham bosqinchilik harakatlarini boshlab yubordi. Bu otryad qo'shinlari siquvi ostida Junaidxon lashkarlari G'oziobod va Paxtaqal'a tomon chekindilar. Bu erda qattiq jang bo'ldi. Junaidxon mazkur jangda o'zining 400 ga yaqin jangchilarini yo'qotdi¹.

U Qoraqumga qochib o'tishga majbur bo'ldi. Qizil armiya xonlik poytaxtini egalladi. Asosiy hukmronlik Junaidxon qo'lida bo'lsa ham, Sayyid Abdullaxon Xivaning rasmiy xoni edi. U hali Xivaga bosqinchilar kirmasidan oldinoq Qizil armiyaning bosh qo'mondoniga vakil yuborib, urushni to'xtatishni talab etdi va 2 fevralda xonlikdan voz kechdi. Qizil armiya xonlik poytaxti Xivani hech qanday qarshiliksiz egalladi. «Yosh xivaliklar»ning Toshkent va Chorjo'y qo'mitalari Xivaga hokimiyat bosib olinganidan ancha keyin keldilar. Xiva inqilobiy qo'mitasi hatto «Yosh xivaliklar»ning Toshkent tashkiloti raisi Polvonxo'ja Yusupovni maxsus chaqirib oldi.

RSFSR Markaz Ijroqo'mi va Rossiya kompartiyasi markaziy qo'mitasining Turkiston komissiyasi va Turkiston inqilobiy harbiy kengashining maxsus vakili G.B.Skalov Muvaqqat hukumatni tuzdi. Uning yozishicha, bu hukumat tarkibiga kirgan a'zolari Sayid Abdullaxon taklif etgan. Shundan so'ng Muvaqqat hukumat tarkibiga mulla Jumanioy Sultonmurodov («Yosh ximvaliklar»ning To'rtko'l

¹ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (XVI – XX asr boshlari); K.3 / Mas'ul muharrirlar: O'. Mavlonov, Q. Usmonov. – T.: Sharq, 2010. – B. 148.

Qo'mitasi raisi), Muhammadjonbiy, Bobo Oxun Salimov, Jaloloxun, Mulla Abdulxayd qori, Turkmanlardan Mulla O'roz va Mulla Navro'zlar kirgan¹.

Birinchi kundan boshlab Xivada Rossiya hukumati, kompartiya va uning Turkkomissiyasi hamda Turkfront harbiy kengashi a'zolari G.I.Broyda, A.Izmaylov, G.B.Skalov va boshqalar hukmronlik qila boshladilar. V.I.Lenin boshliq bolsheviklar Sankt-Peterburgda davlat to'ntarishi yasab sovet hukmronligini o'rnatish uchun qanday noqonuniy va harbiy to'ntarishni amalga oshirgan bo'lsalar, Xivada ham aynan shu ishlar takrorlandi. Mahalliy o'ziga xos sharoit, tarixiy an'ana va urf-odat, xalqning xohish-irodasi umuman e'tiborga ham olinmadi. Xonlikda bosh vazir lavozimida ishlagan Davlatmurod Tozamahrash otib tashlandi, hukumatning boshqa a'zolari qamoqqa olindi.

1920 yil 27-30 aprelda Xiva shahrida «xalq» vakillarining Butunxorazm I Qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda Xorazm «xalq» Sovet Respublikasi tuzilganligi e'lon qilindi va uning muvaqqat konstitutsiyasi qabul etildi. Qurultoyda respublika hukumati-Xalq Nozirlari Soveti tuzildi. Hukumat raisi etib Polvonxoji Yusupov, rais muovinligiga Bobo Oxun Salimov (Asfandiyorxon qoshidagi majlis raisi), va o'n besh nozir (vazir) saylandi. Bu saylanganlarning o'ntasi «Yosh xivaliklar»ning vakillari edilar. Ular o'z faoliyatlarida hukumatni mahalliy sharoit, shariat va mustaqillik asosida boshqarishga, milliy manfaatni himoya qilishga harakat qildilar. Bu esa rus sovet hukumati va firqasining Turkiston va Xivadagi vakillariga yoqmad. Shu boisdan ham «Yosh xivaliklar» hukmronligi ham uzoqqa bormadi. U bor yo'g'i o'n ikki oy umr ko'rdi. Markaz va mahalliy kommunistlarning taz'yiqi bilan 1921 yil 21 fevralda II Butunxorazm qurultoyini chaqiruvchi markaziy saylov komissiyasi tuzildi.

U. Yusupov boshliq hukumat esa uni tarqatib yubordi, saylovoldi targ'ibotini ma'n etdi, hukumat qaroriga qarshi bo'lganlarni qamoqqa oldi. Chunki sovetlarning so'zi bilan amaliy ishlari to'g'ri kelmayotgan edi. Gap shundaki,

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида. . 120-бет

markaziy rus sovet hukumati 1920 yil 13 sentyabrda Xorazm xalq Sovet Respublikasi bilan ittifoq shartnomasini tuzdi. Unda RSFSR XX ShRning to'la mustaqilligini rasman tan oldi. Eski Chor Rossiyasi bilan tuzilgan barcha shartnomalar tengsizlik asosiga qurilgan shartnomalar sifatida bekor qilindi. Shu sabab Moskvada Boboovun Salimov boshliq Xorazm vakillari «katta izzat va ikrom va hurmat bilan» kutib olindi. Xorazm vakillari uch oydan so'ng yurtlariga qaytib keldilar. Delegatsiya a'zolarini hatto «dohiy» Leninning o'zi qabul qilgan, bundan keyin Xorazm xalqi o'z taqdirini o'zi belgilaydi, bu «inqilobiy g'alaba»dir, «Men sizlarni bunday g'alaba bilan tabriklayman», deb aytgan. Ammo sovet hukumati ikkinchi tomondan amalda «Yosh xivaliklar» boshliq Xorazm sovet xalq hukumatiga zarracha bo'lsada mustaqil ishlashga imkon bermadi. Ustiga ustak kun sayin kommunistik taz'iy q va bosim tobora ortib bordi.

«Yosh xivaliklar» hukumati tez orada o'zlarining aldanganliklari va bolsheviklarning dahshatli qarmog'iga tushganliklarini anglab etdilar. Bu hol «Yosh xivaliklar»ning milliy his, g'urur va ongining yanada o'sishiga sabab bo'ldi. Natijada ular rus kommunistik bosqiniga qarshi milliy istiqlol va ozodlik uchun kurashga otlandilar. «Yosh xivaliklar» zimdan sovet hokimiyati va bosqinchi kommunistlarga qarshi istiqlol uchun oyoqqa turgan kuchlarga yordam berdilar. Bu kurashni butun Xorazm xalqi qo'llab-quvvatladi. Islom dini ulamolari va xalq vakillaridan katta bir guruh jamoasi hukumat nomiga ariza yozib, Xivada kompartiyani ta'qiqlash va hamma kommunistlarni mamlakatdan haydab chiqarishni talab qildilar. 1920 yil 26 iyun, 8-9 iyulda Xivada xalq ommasining norozilik mitinglari bo'lib o'tdi. Miting qatnashchilari Xorazmda kommunist-xudosizlar yurg'izayotgan siyosatdan norozi ekanliklarini izhor etdilar.

3-BOB. Xorazm Xalq Sovet Respublikasidagi ijtimoiy-siyosiy hayot.

Markaziy rus sovet hukumati va firqasining Xorazmga yashirincha yuborgan ayg'oqchilari mahalliy milliy hukumatga qarshi har xil qo'poruvchilik, ayg'oqchilikdan iborat targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirdilar. Nihoyat 1921 yil 10 martda kommunistik ayg'oqchi va missonerlar, mahalliy sotqinlar yordamida Xiva qizil askarlari garnizoni, Turkman qizil eskadroni jangchilari, «ko'ngilli» o'zbek militsionerlari, jami bo'lib 5000 dan ortiq «inqilobchi»larni Xiva ko'chalariga olib chiqishga muvaffaq bo'ldilar. Maxsus harbiy bo'linma Xorazm hukumatining bir necha vazirlarini qamoqqa oldi. Polvonxoji Yusupov va «Yosh xivaliklar»ning boshqa rahbarlari harbiy isyon arafasida kechasi Xivadan qochib ketishga muvaffaq bo'ldilar. Isyonchilar ana shu tariqa davlat to'ntarishni amalga oshirdilar. Harbiy inqilobiy qo'mita tuzildi va hokimiyat uning ixtiyoriga topshirildi. Bu Sovetlar hukumati va kommunistik firqaning navbatdagi ayyorligi va ustasi farang qo'porovchilik siyosatining klassik ko'rinishi edi.

Xiva xonligi hududida aksilingilobiy kuchlarga zarba berish bahonasida mahalliy xalqni yoppasiga qirg'in qilish va ommaviy genotsid qilish amalga oshirildi.

Sovetlarning Xorazmda amalga oshirgan qirg'inbarot va hunrezliklari bir-biridan dahshatlidir. O'z vaqtida Junaidxonni tor-mor keltirishda G'ulom Alixon va Qo'shmamedxonlardan sovetlar ustalik bilan foydalanganliklarini yuqorida ta'kidlandi.

Ammo keyinchalik G'ulom Ali va Qo'shmamedga sovetlarga qarshi davlat to'ntarishi tayyorlanyapti degan ig'vo ishlab chiqildi va har ikkalasini yo'q qilishga qaror qilindi. Xivadagi sovet hokimiyati kuchlari o'zaro mahfiy kelishilgan holda G'ulom Ali va Qo'shmamedni yigitlari bilan tezda Xivaga etib kelishini buyurdilar. Chunki, bu erda Buxoroga qarshi yurish masalasi muhokama qilinajagini xabar qilishadi. G'ulom Ali va Qo'shmamed hech ikkilanmay va

xavfsiramay Xivaga etib kelishdi. Yarim kechada Qizil Armiya kuchlari G`ulom Ali va Qo'shmamed va ularning yigitlariga kutilmaganda qo'qqisdan hujum qildilar va qurolsizlantirdilar. Bir necha soatdan so'ng Qo'shmamed va uning yigitlari qilichdan o'tkazildi. G`ulom Ali esa qochib qoldi. Jazo otryadi G`ulom Alining orqasidan quvdi. Yo'l-yo'lakay barcha qishloqlar va ovullar er bilan yakson qilindi. Bu voqeadan xabar topgan yovmud turkmanlari hech narsaga qaramasdan mol-mulklarini tashlab chor atrofga tum-taraqay qocha boshladilar, ularning ko'plari Kaspiy dengizigacha bir necha ming chaqirim yo'llarni bosib Eron tomonga o'tib ketdilar va boshpana topdilar.

Qizil Armiya kuchlari Xorazmda yangi tartib-qoidaalarni o'rnatish chog'ida shunday yaramas noinsoniy ishlarni amalga oshirganlarki, bu har qanday sof vijdonli kishining nafratini uyg'otmasligi mumkin emas. Buni biz G.I.Broydaning ilmiy merosi orqali ochiq-oydin ko'rishimiz va undan tegishli xulosa chiqarishimiz mumkin. Qonuniy savol tug'iladi. G.I.Broydaning o'zi kim? Marhamat tanishing. Broyda 1883 yilda Vilnoda tug'ilgan. Yurist. 1909 yildan boshlab Toshkentda oqlovchi yordamichisi bo'lib ishlagan. 1912 yili Toshkent temiryo'lchilari o'rtasida inqilobiy g'oyalarni yoygani uchun Pishpek (Bishkek)ga surgun qilinadi. 1917 yil fevral inqilobidan keyin Broyda qisqa muddat askar deputatlari Toshkent soveti rahbarligi ostida ishchi va askar deputatlari o'lka kengashiga a'zo bo'lib kiradi. So'ng Moskvaga ketib, leninizmning milliy siyosati nazariy asoslarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. 1918 yili Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining Moskvadagi muxtor vakili, Sharqiy Ijroiya Qo'mitasining Moskvadagi muxtor vakili, Sharqiy Frontdagi I-IV armiyalarning siyosiy komissari bo'lib ishlaydi. So'ng 1920 yili avgustigacha RSFSR Xalq Komissarlari Kengashi va Butunittifoq Markaziy Ijroiya Qo'mitasining Turkkomissiyasida xizmat qiladi, keyingi yillarda bir qator rahbarlik lavozimlarda ishlagan. 1941 yilda trotskiychilikda ayblanib, qamoqqa olingan. 1955 yilda oqlangan.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarix institutining tarixshunoslik, manba'shunoslik va arxeografiya bo'limi mudiri, tarix fanlari nomzodi Valeriy German, G.I.Broyda faoliyatini chuqur o'rganib qimmatli dalillarni berdi.

1920 yil 10 fevralda Turkkomissiya yigilishida Broyda bunday degan edi: «O'zimiz qilayotgan tartibsizliklarni (Xorazmdagi tartibsizliklar-mualliflar) tushunib etolmayapman, komissiyaning xar bir a'zosi mustaqil ish yuritmayapti, nazarimda Skalov(RSFSR XKK va BMIK komissiyasining Turkiston ishlari hamda TASSR Harbiy Inqilobiy kengashi Xiva-Amudaryo bo'limi muxtor vakili-mualliflar)ning bunday ishga qo'l urishiga kidir yo'l-yo'riq bergan. (Unda ko'rsatmani Eliava va Kuybishev imzosi bilan Turkiston harbiy Inqilobiy Kengashi bergan-mualliflar). Men esa butunlay boshqacha ko'rsatma bergan edim, harbiy guruxlarimiz Xiva ishlariga aralashsa qanday murakkabliklar kelib chiqishini eslatgandim»¹.

Darxaqiqat Xivada vaziyat keskinlashdi. Amudaryo bo'limi rahbarlari xatoga yo'l qo'ymasligi, RSFSRning ojiz davlatlarga bo'lgan munosabatidagi mezonlar buzilmasligining oldini olish uchun BMIK komissiyasi Broydani muxtor vakil etib tayinlaydi.

1920 yil 29 martda Broyda boshchiligida 150ga yaqin kishi Petroaleksandrovska (hozirgi To'rtko'l) keladi. Missiya a'zolari mavjud vaziyatni o'rganar ekan, jiddiy suiste'molliklar va xatoliklarga yo'l qo'yilganligini aniqlaydi. Harbiy tribunal raisi I.R. Fronshteynning Toshkentga yozgan maktubida shunday jummalarni o'qiymiz: «Biz bu erda ko'rgan narsalar shunchalik dahshatliki, bunaqasini hech qaerda ko'rmaganmiz. Oshkora harbiy talon-tarojliklar uyushtirilgan, qo'lga tushgan narsalarni shtab rahbarlari o'zlariga ko'proq ulush olib qolib, qolganini taqsimlashgan. Xotinlarni olib ketishgan, ularni asira sifatida saqlab, Petroaleksandrovska va Xiva bozorlarida kim oshdi savdosida sotishgan. Xiva saroylari yakson etilgan. Qizil Armiya askarlari oldidan chiqqan odamni otib

¹ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (XVI – XX asr boshlari); K.3 / Mas'ul muharrirlar: O'. Mavlonov, Q. Usmonov. – T.: Sharq, 2010. – B. 153.

tashlay bergan. Skalov bularning boshida turadi va u jinoyatkorona loqaydligi uchun aybdordir». BMIK komissiya a'zosi Shokirov 1920 yil 4 aprelida Toshkentga yozgan xatida xabar berishicha, Skalov tomonidan tashkil etilgan Muvaqqat hukumat bu erdagi talon-tarojchi qismlarning harbiy buyruqchisi vazifasini bajargan, ular aholi mulkini ochiqchasiga talab, qo'lga tushgan o'ljalarni o'zaro baham ko'rganlar. Amudaryo bo'yidagi mustamlakachi gazandalar guruhi ayollarni ochiqchasiga sotish bilan keng shugullangan. Ayrim qizil askarlarga, mana buni otasiz, degan ko'rsatmalar berilgan. Skadovning o'zi Xiva harbiy noziri Sardorboyni otb o'ldirgan. Broyda 1920 yil 6 mayda bo'lib o'tgan Turkiston RKP Qo'mitasining yalpi majlisida so'zlagan nutqida Xorazmda yoppasiga ochlik hukm surayotganligi, mehnatkash xalq ahvoli bilan hech kim qiziqmaganligini qayd etadi. Aksincha bu erda joylashgan Qizil askarlar xaqni yoppasiga qirgin qilish, o'girlik va axloqiy buzuvq ishlarni amalga oshirganlar. Bu ishlarga Qizil Armiya bosh shtabining o'zi boshchilik qilgan. Kimni-kim otishini askarlar shtabda o'zaro kelishib olganlar. Bir qizil askar 600 xonadonni o'g'irlab, vayron qilganligi aniqlangan. Yo'l-yo'lakay kim duch kelsa ota borganlar, Qizil askarlar 7 yoshli qizlarni zo'rlaganlar, deydi Broyda.¹ Ana shulardan kelib chiqib, Broyda Skalovchilik, kolesovchilik-boshqa mamalakatlar mehnatkashlari-ning ijodiy kuchiga ishonmaslik oqibati, deb baho beradi. Ushbu masalada Broyda Turkkomissiyaning rahbarlari bilan kelisha olmay qoladi. Natijada uni Toshkentga chaqirib olishadi. Broydaning o'rniga esa Xorazmda amalga oshirilgan barcha ifloslik va jinoiy ishlarning ilhomchisi va tashkilotchisi Skalov tayinlandi. Ana shu birgina asosli dalilning o'zi ham o'lkamizda amalga oshirilgan qirg'in va terror, ahloqiy buzuvqilik va buyuk davlatchilik siyosatining tepasida kimlar turganligini ochiq oydin ko'rsatadi.

¹ Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (XVI – XX asr boshlari); K.3 / Mas'ul muharrirlar: O'. Mavlonov, Q. Usmonov. – T.: Sharq, 2010. – B. 155.

Buni shu narsadan ham bilish mumkinki, 1920 yil 6 maydagi majlisda Broyda nutqini tinglagan V.Kuybishev unga befarq va sovuq munosabatda bo'lgan. Uning fikriga ko'ra Broyda masalani «chigallashtirib» yuborgan ekan².

M.V.Frunze bo'lsa 1920 yil 14 aprelda V.I.Leninga «Turkistondagi ahvol to'g'risida» yozgan xatida «Markaziy Qo'mita Broydani Turkistonga yuborib juda katta xatolikka yo'l qo'ygan», faoliyatning barcha sohasida men uni Turkkomissiyaning johil dohiysi deb hisoblayman; shaxsiy hayotda esa-bu oddiy qo'poruvchilar»³, deydi. Bu so'zlarga izoh ortiqchadir.

RSFSRning Muxtor vakili M.Safonovning buyrug'i bilan 1921 yil 6 mart kuni yosh xivaliklar hukumatiga qarshi ommaviy mitinglar o'tkazildi. Mitingda qizil armiya siyosiy boshqarmasi-ning talabi bilan yosh xivaliklar hukumatini ag'darish haqida qaror qabul qilindi. Qurollangan harbiy qismlar hukumat uyiga bostirib kirib, hukumat rahbarlarini hibsga oldilar. Polvonniyoz Yusupov yashirinishga ulgurdi. Qizil askarlar qo'liga tushmay qolgan nozirlar esa Junaidxonga qo'shildilar. Qonuniy saylangan yosh xivaliklar hukumati ag'darildi¹.

Bu dahshatli qirg'inlar va qonxo'rlikning hammasi Xorazmda sovetlar mustamlakachilik va qullik tizimini o'rnatish maqsadlarini ko'zlab amalga oshirildi. Ana shu razil maqsadni amalga oshirishning navbatdagi bosqichi 1921 yil 15-23 mayda chaqirilgan Butun xorazm Sovetlarining II qurultoyi bo'ldi. Qurultoyda 230 vakil qatnashdi. Shundan 50 vakil turkman xalqi vakillari edilar². Mamlakatimizda amalga oshirilgan mislsiz qirg'inlar va dahshatlarning g'oyaviy ilhomchilari va tashkilotchilari V.I.Lenin va I.Stalinni «inqilob» dohiylari sifatida qurultoyining faxriy rayosatiga sayladilar. Qurultoy ishi Moskva va Toshkentda tayyorlanayotgan va ishlab chiqilgan dastur asosida o'tdi. Vaqf mulklari tugatildi; sanoatni umumxalq mulkiga aylantirish; paxta ekiladigan maydonlarni

² Ўша асар, ўша жойда

³ Ўша асар, ўша жойда.

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. .218-бет

² Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (XVI – XX asr boshlari); K.3 / Mas'ul muharrirlar: O'. Mavlonov, Q. Usmonov. – T.: Sharq, 2010. – B. 157.

kengaytirish; Xorazm Sovet xalq respublikasining o'zgartirilgan Yangi Konstitutsiyasini qabul qilish; RSFSR bilan Xorazm Sovet Respublikasi o'rtasidagi ittifoqchilik shartnomasi va harbiy-siyosiy bitimni ratifikatsiya qilish kabi masalalar qurultoy kun tartibidagi asosiy masalalar bo'ldi. Qurultoyda hukumatning yangi tarkibi saylandi. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasining raisi etib Ota Maxsum Muhammad Rahimov (sobiq qozi kalonning o'g'li), Harbiy nozirlikka jadid Javobbergan Qo'chqorov (laqabi Jabbor Sori) Xalq Nozirlari Kengashining raisi lavozimiga Abdulla Xo'ja (Fayzulla Xo'janing ukasi, Buxoro amirining jiyani) saylandilar. Xullas yangi saylangan hukumat a'zolarining deyarlik hammasi boy-badavlat, o'qimishli ziyolilar va jadidlarning vakillari edilar. Shu boisdan ham ular xalq va millat manfaatlariga befarq qaramadilar, hukumat va firqa tarkibidan nihoyatda ehtiyotlik va ziyraklik bilan rusparast unsurlarni sekin-astalik bilan surib chiqarish yo'lini tutdilar, ularning o'rniga millatparast o'z maslakdoshlarini qo'yaboshladilar. Ana shu sababga ko'ra Sovetlar davrida yaratilgan tarixiy-ilmiy va badiiy asarlarda Xorazmning ikkinchi xalq hukumati «boy-feodal» va «aksilinqilobiy» hukumat sifatida ta'riflandi. Shu bois Ota Maxsum Muhammad Rahimov hukumatining ham uzoq umr ko'rishi amri mahol edi. U bor-yo'g'i bir yilu sakkiz oy umr ko'rdi, xolos. 1922 yil noyabr oyida bolshevoylar mahalliy sotqinlar va aldanganlar yordamida Xorazmda ikkinchi marta davlat to'ntarishini amalga oshirdilar. Hukumat a'zolaridan bir guruhi qamoqqa olindi. Ota Maxsum, J.Qo'chqorov va boshqalar zo'rg'a qochishga ulgurdilar va Junaidxon boshchiligida harakat qilayotgan milliy-ozodlik kuchlariga borib qo'shildilar. Bu davrga kelib Sovetlar va Kompartiyadan xalq ommasining hafsalasi pir bo'lib, borgan sari ularning noroziligi kuchayib bordi. Vaziyatga to'g'ri baho bergan Junaidxon Xorazm istiqlolchilik harakatining yirik sarkori sifatida «revkom» deb nomlanmish bosqinchi tashkilotdan qamoqqa olinganlarni tezda ozod qilishni qat'iy talab qildi.

Xorazmdagi ikkinchi davlat to'ntarishi xalq manfaatlariga zid bo'ldi. Mahalliy xalqning haq-huquqi paymol qilindi. Bu rus kommunistik

zo'ravonligining aynan o'zi edi. Shunga qaramay, sovet tarixida u «inqilobiy ish» deb ko'rsatildi. Xalq ommasining sovet hukumati va kompartiyaga nisbatan nafratini yanada oshirdi. Shu bilan birga u butun musulmon milliy-ozodlik va rus aksilsovetviy demokratik kuchlarning birlashishi va mustahkamlanishiga yangi turtki bo'ldi.

Junaidxonning yigitlari 1921-1922 yillarda birdan 1000 otliqqa ko'paydi. Xalq Junaidxon jasoratini qo'llab-quvvatladi va unga sodiqligini izhor etdi. «Yosh xivaliklar» hukumati va undan keyingi Ota Maxsum hukumati rahbarlari ham sovet hokimiyatiga qarshi umumiy kurash jabhasiga uyushdilar. Bundan vahimaga tushib qolgan Xivadagi «Xorazm inqilobini himoya qiluvchi» harbiy inqilobiy kengash rus sovet hukumatidan qo'shimcha armiya so'radi. Bunga javoban Turkfront qo'mondonligi 1922-1923 yillarda Xorazmga bir qator harbiy qismlarni yubordi. Shundan so'ng Qizil armiya Xorazmning yangi harbiy noziri Boloshin qo'mondonligida Junaidxonga qarshi jang harakatlarini boshlab yubordi. Kuchlar nisbati teng emas edi. Shu bois rus askarlarining qo'li baland keldi. Lekin vatanparvar kuchlarni engish oson bo'lmadi, u uzoq muddatga cho'zildi. Rus «inqilobiy kuchlari» qo'lida qo'g'irchoq bo'lgan Xorazmning yangi hukumati oldingi ikki hukumatga nisbatan farqli o'laroq o'z maslahatchilari ta'sirida «inqilobiy va sotsialistik» o'zgarishlar yasashga kirishdi. Shoshilinch ravishda 1923 yil oktyabrda chaqirilgan IV-Butun Xorazm qurultoyi Xorazm xalq sovet respublikasini «Xorazm sovet sotsialistik Respublikasi» deb e'lon qildi. Ko'rinib turibdiki, bu bilan kommunistlar mamlakatda «Yosh xivaliklar» ya'ni jadidlar hamda ularning ta'sirida bo'lgan kuchlarning hokimiyati ag'darilishi bilan sotsializm qurilishi boshlandi degan tushuncha g'oyani oddiy xalq ongiga singdirib ularni o'z tomonlariga ag'darib olishni rejalashtirdilar.

Ikkinchi tomondan esa ular Xorazmda yo'qsillar diktaturasi (hukmronligi) ishchilar sinfi bilan dehqonlar hokimiyati o'rnatilganligini e'lon qildilar. Aslida esa bu aql bovar qilmaydigan kommunistlarga xos soxtakorlik ko'zbo'yamachilikdan boshqa narsa emas edi. Chunki yuqoridagi mavzularda ta'kidlangani singari

Xorazmda proletariat sinfining o'zi yo'q edi. Shu bois «sotsializm» to'g'risidagi tushunchalar ham quruq va yolg'on, xalq ommasiga tushunarsiz va begona tushunchalar edi. 1921 yil dekabrda tashkil topgan Xorazm kommunistik tashkiloti ham sun'iy shakllantirilgan qo'g'irchoq uyushma edi. Ammo bu qo'g'irchoq Moskva siyosatini Xorazmda amalga oshiruvchi kuch chifatida Qizil armiya himoyasida jamiyatda siyosiy hukmron va boshqaruvchi tashkilotga aylandi. Xorazm Kompartiyasi Moskva buyurtmasini bajardi, o'zi mustaqil suratda birorta masalani ko'targan ham emas, bajargan ham emas. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda Moskva buyurtmasi asosida Xorazm kompartiyasining ko'rgazmasi bilan IV-Butun Xorazm qurultoyining Xorazmni Sotsialistik Respublika deb e'lon qilganligiga ajablanmasa ham bo'ladi. Qurultoyda qabul qilingan Xorazmning uchinchi Konstitutsiyasi Xorazmda «sotsialistik inqilobni» qonunlashtirdi.

Sovet tarixida esa bu-Xorazmda xalq inqilobining sotsialistik inqilobga o'sib o'tishi, jamiyat negizida esa xalqning xohish irodasiga ko'ra sotsialistik o'zgarishlar yuz berdi deb ko'rsatildi. Haqiqatda esa yuqorida ta'kidlangani singari nafaqat Xorazmda balki butun O'rta osiyoda ham hech qanday xalq inqilobi ham, sotsialistik yo'qsillar inqilobi ham bo'lgan emas.

Mamlakatimizda Rossiya mustamlakachilari tomonidan zo'ravonlik yo'li bilan xalq nomidan amalga oshirilgan «inqilob» va «inqilobiy o'zgarishlar»ning hammasi tub erli aholining irodasi va manfaatlariga mutlaqo qarama-qarshi edi. Shu boisdan Xorazm xalqining noroziligi kun sayin ortib bordi. Bu jarayon ayniqsa yangi «sotsialistik» konstitutsiya qabul qilinishi va «sotsialistik o'zgarishlar» avj olishi bilan xususan kuchaydi. Yangi konstitutsiyaga ko'ra boy va badavlat kishilar saylash va saylanish huquqlaridan mahrum etildi. Erning xususiy mulkligi zo'ravonlik asosida tugatildi, vaqf erlar ham umumxalq mulkiga aylantirildi, yuqori va quyi hokimiyat organlarida millat va vatan manfaatini ko'zlab ishlayotgan jadid va boshqa o'qimishli kishilar «yot unsur»lar sifatida ishdan haydaldi.

Ota Maxsum boshliq Xorazmning ikkinchi jadid hukumati ag'darib tashlanishi bilanoq, 1922 yil dekabrda boshlab, aholidan olinadigan yagona er solig'i joriy qilindi. Bu «adolatli soliq» deb ataldi. Bunday soliq tizimi sun'iy ravishda xalq ommasini sinfiy tabaqalashtirdi. Kommunistlar va sovet hukumatiga xizmat qilayotganlar alohida imtiyozlarga ega bo'ldilar. Qizil armiya askarlari va komandirlari hamda 10 tanobgacha eri bo'lgan militsionerlar soliqdan butunlay ozod qilindi. O'rta hol boy va badavlat bo'lmaganlar ham ko'p miqdorda soliq to'laydigan bo'ldilar. Mana shu dalilning o'zi «adolatli» soliq tizimining adolatsizligini ko'rsatar edi.

1923 yil noyabrda boshlab esa soliqlar tartibi o'zgartirildi. Hamma erlardan, ularning hosildorligi qanday bo'lishidan qat'iy nazar bir xil miqdorda soliq olinadigan bo'ldi. Savdogarlardan olinadigan patent solig'i ham hamma uchun bir xil bo'ldi. Katta va kichik savdogarlar farqlanmadi. Bu «tenglik» tengsizlikni kuchaytirdi. Bundan tashqari kommunistlar mahalliy aholining diniy hissiyotlarini toptab, machit va madrasalarni yopib qo'yidilar, xotin-qizlarni paranji va chimmatlarini tashlashga majbur qildilar. Shariatga asoslangan qozilar mahkamasi (sudi) tarqatildi, sovet sudlari joriy qilindi, aholining eri, mol-mulki va chorvasi xatlanib hisobga olindi. Madrasa va qadim an'anaviy maktablar yopib qo'yildi. Bu «inqilobiy» tadbirlarning tashabbuskori va ijrochilari kommunistlar bo'ldi. Bu kabi noinsoniylik, daxriylik, o'zboshimchalik va qonunsizliklardan xalq ommasi g'azabga keldi. 1924 yil yanvarda Xorazm xalqi Junaidxon va «Yosh xivaliklar» rahbarligida Sovetlar istibdodiga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Qo'zg'olon Madrahimboy rahbarligida Pitnakda boshlandi. So'ngra unga Xazoraspda Sobirboy, Matchonbek va Shokirjonpir qo'shildilar. Qo'zg'olon Bog'ot, Xonqa, Yangiariq, Saduvar va boshqa joylarga yoyildi. Qo'zg'olonda qatnashganlarning soni 10-15 mingga etdi.

Qo'zg'olon uyushqoqlik bilan o'tdi. U o'z oldiga faqat kommunistlarning o'zboshimchaligini yo'q qilish vazifasinigina emas, balki butunlay sovet

hokimiyatini ag'darib tashlash va Xorazm mustaqilligini tiklash maqsadini ham qo'ygan edi.

Ana shu maqsad bilan qo'zg'olonchi vatanparvarlar ikki guruhga bo'lindilar. Qo'zg'olonchilarning birinchi guruhi Junaidxon huzuriga va ikkinchi guruhi esa Xivaga-Sovet hukumati sari yo'l oldi.

Birinchi guruh vakillari 15 kishidan iborat bo'lib, unga Madrayimboy rahbarlik qildi. Ular Junaidxon huzuriga borib, Xivadan sovet hukumati va kommunistlarni haydab chiqarishga birlashib harakat qilishga vakil etilgan edi. Ikkinchi guruh esa 200 kishilik katta kuch edi. Ular Xivaga borib hukumatdan «adolatli soliq»ni bekor qilinishini, qozilar mahkamasini, madrasa va maktablarni tiklashni, Xivadan bolsheviklarning chiqib ketishini qat'iy talab etdilar. Bu paytda hukumat rahbarlari SSSR sovetlarining II qurultoyida qatnashish uchun Moskvaga jo'nab ketgan edilar. Tinch muzokaradan natija chiqmadi. Shundan so'ng xalq lashkarlari 10 yanvar kuni Xiva shahrini qamal qildilar. Junaidxon ham 8 mingga yaqin o'z yigitlari bilan Xiva tomon yurdi. Toshhovuz, Mang'it, Gurlan, Shovot, G'ozibod va boshqa bir qator tumanliklar qo'zg'olonchilar va Junaidxonning qo'liga o'tdi. Mamlakat poytaxti Xiva butunlay tashqi dunyodan ajralib qoldi. Radiostantsiya buzib tashlandi, Xiva, To'rtko'l, Chorjo'y telegraf simlari ham uzib qo'yildi.

XULOSA

Bolshevoylar hukumati Xorazmda Sovetlar hokimiyatini saqlab qolish uchun shoshilinch choralarni amalga oshirdi. Xalq komissarlari Kengashi hukumati o'rniga Revkom (inqilobiy qo'mita) va Favqulodda komissiya tuzildi. Bu «inqilobiy» tashkilotlar xalq qo'zg'olonini katta harbiy kuch bilan ayovsiz bostirishga kirishdi. Mamlakatda ta'qib, talon-tarojlik sudsiz so'roqsiz otib tashlash kuchaytirildi.

Duch kelgan joyda har bir oddiy fuqaro, xalq qo'zg'oloni qatnashchilari va boshqalar «inqilob dushmani» «isyonchi» va «bosmachi» sifatida otib tashlanaverdi. Bosqinchilar bu bilan cheklanmadilar. Xorazm sovet hukumati Rossiya sovet hukumatidan shoshilinch suratda harbiy yordam berishni so'raydi. RKP(b) Markaziy qo'mitasining O'rta Osiyo byurosi qo'zg'olon boshlanishi bilanoq, 1924 yil 6 yanvarda maxsus qaror qabul qilib, Turkfront Inqilobiy kengashiga Xivaga armiya yuborish to'g'risida ko'rsatma berdi. 22 yanvarda Farg'ona va Buxorodagi milliy istiqlol kuchlariga qarshi kurashda katta tajriba orttirgan N.A.Shaydakov qo'mondonligidagi 82-otliq polk Chorjo'yga etib keldi va 23 yanvarda Xonqaga hujum boshladi. Xiva shahrining 12 darvozasi 10 ta pulemyot bilan qurlollangan qizil armiyachilar tomonidan qo'riqlandi. 82-polk 29 yanvarda Xazorasp tumanida Og'ajon Eshon boshchiligidagi xalq lashkariga duch keldi. Istiqlol himoyachilari 18 soat uzluksiz davom etgan jangdan so'ng, kuchlar

nisbati teng bo'lmagach, qumlar orasiga chekinishga majbur bo'ldilar. 82-polk 4 fevralda Xiva shahriga etib keldi va Xiva qamali tugatildi. Junaidxon chekinishga majbur bo'ldi. U Sovetlarga qarshi kurashni 1929 yilgacha davom ettirdi. Ammo muvaffaqiyatga erisha olmadi. Shundan so'ng Junaidxon dastlab Eronga, so'ngra Afg'onistonga o'tib ketdi. Sovetlar xalq ommasining talabi bilan qishloq xo'jalik solig'ini to'rt baravar kamaytirishga majbur bo'ldilar, sovet ma'muriyati rahbariyatidan katta bir guruhi ishdan olindi. Ikki kun davomida hukumat komissiyasiga aholidan sovet ma'muriyati ustidan norozi bo'lgan 500 ta ariza tushdi.

Hukumat komissiyasi xalq talabiga ko'ra qo'zg'olon vaqtida va undan oldin qamoqqa olingan vatanparvarlardan 214 kishini ozod qildi.

Xullas xalq ozodlik qo'zg'oloni katta talofotlar evaziga bo'lsada sovet hukumati va kompartiyani omma irodasi bilan hisoblashishga majbur qildi. Sovetlar xalq ozodlik qo'zg'olonini bostirgan bo'lsalarda Rossiya mustamlakachiligiga qarshi omma kurashi to'xtab qolmadi. U yana uzoq yillar, o'ttizinchi yillarning o'rtalarigacha davom etdi. Sovetlar hukumati va Kompartiya yagona turk xalqlari milliy-ozodlik kurashiga barham berish uchun «bo'lib tashla hokimlik qil» shioriga amal qildi va milliy davlat chegaralanishini o'tkazishga kirishdi. Ana shu tariqa sovetlar hukumati Xorazm xalqining asrlar osha davom etib kelgan davlatchilik an'anasiga barham berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Каримов И.А. Ўзбекистон халқи ўз йўлидан қайтмайди. Асарлар, 4-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
2. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. – Т.: Шарқ, 2000.
3. Усмонов Қ., Содиков М. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). – Т.: Шарқ, 2001.
4. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000.
5. Ўзбек давлатчилиги тарихи очерклари. – Т.: Шарқ, 2001.
6. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий таҳрири остида. –Т.: Янги аср авлоди, 2003.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1,2,3 ... жилдлар.
8. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий – сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги) / Масъул муҳар. Қ. Ражабов. –Т.: 2007.
9. Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар. К.3. – Андижон: 2004.
10. Usmonov Q. Ozbekiston tarixi. – Т.: IQTISOD – MOLIYA, 2006.
11. Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (XVI – XX asr boshlari); К.3 / Mas'ul muharrirlar: O'. Mavlonov, Q. Usmonov. – Т.: Sharq, 2010.